

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST ЎТМИШГА НАЗАР

XORAZMDA JADIDCHILIK HARAKATI VA YOSH XIVALIKLAR PARTIYASI FAOLIYATI

Yusupova Dildora, Xushmatova Sarvinoz,
O'zMU tarix fakulteti mustaqil tadqiqotchilari

For citation: Yusupova Dildora, Khushmatova Sarvinoz. Djadid movement in Khorezm and the activities of the Young Khiva residents. 2019, vol. 1, issue 13, pp.32-41.



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2019-13-04>

Келиб тушган сана 5 август, 2019
Эълон қилинган сана 5 октябрь, 2019

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xiva jadidchilik harakatining o'ziga xos xususiyatlari, shakllanish jarayonlari va rivojlanish bosqichlari aks ettirilgan. Shuningdek, Xiva jadidchilik harakatining o'ng va so'l oqimga bo'linishi ayrim ma'rifatparvarlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatlari bilan bog'liq jarayonlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvar, ziyolilar, amaldor, geografiya, tarix, jamiyat, hokimiyat, mahalliy, oqim, islohot, markazlashtirish, zamonaviy, ijtimoiy, siyosiy, mustamlaka, mustaqillik, partiya, gimnaziya, pochta, telegraf, inqilob.

ДЖАДИДСКОЕ ДВИЖЕНИЕ В ХОРЕЗМЕ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЛАДОХИВИНСКОЙ ПАРТИИ

Юсупова Дилдора, Хушматова Сарвиноз,
самостоятельные исследователи,
Исторический факультет НУУ

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены особенности движения Хивинских джадидов, этапы его становления и развития. Кроме того, отделение джадидского движения Хивы правый и левый поток подчеркивается процессами, связанными с социально-политической деятельностью некоторых просвещенных.

Ключевые слова: джадиды, просвещение, интеллигенция, чиновники, география, история, общество, власть, местный, поток, реформа, централизация, современная, социальная, политическая, колониальная, независимость, партия, гимназия, почта, телеграф, революция.

DJADID MOVEMENT IN KHOREZM AND THE ACTIVITIES OF THE YOUNG KHIVA RESIDENTS

Yusupova Dildora, Khushmatova Sarvinoz,
independent researchers,
Faculty of History of the National University

ANNOTATION

This article is devoted to unique features, development processes and stages of development of jadid movement in Khiva. Moreover, separation of Khiva jadid movement to right and left directions and socio-political activities of bright people of that time are also described.

Key words: jadid movement, educationalist, intelligents, officials, geography, history, society, government, local, trend, reform, centralize, modern, social, political, colony, party, gymnasium, post, telegraph, revolution.

1917-yilgi oktabr to'ntarishidan so'ng Xiva xonligida siyosiy kurash avj olib ketdi. 1920-yil 2-fevralida Qizil Armiya yordamida xon taxtdan tushirildi va Xiva xonligi hududi 1920-yil 26-aprelda Xorazm Sho'rolar Jumhuriyati deb e'lon qilindi.

Rus bosqinidan keyin mustaqillikning yo'qotilishi, siyosiy haqsizlik va adolatsizlik butun jamiyat ahlini Rossiya davlatiga qarshi kuchli muxolifatga aylantirdi. Ularning orasidagi mahalliy yuqori tabaqalarning ilg'or vakillari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xiva xonligida jadidchilik harakatiga asos soldilar. "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi[1],-degan edi O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov. Xiva xonligi siyosiy hokimiyatini qo'lga kiritgan qo'ng'iroq xonlarining dastlabki hukmdori

Eltuzarxondan (1804-1806 yy.) boshlab tarixga va tarixnavislikka katta e'tibor berilgan. XIX asming birinchi yarmida qo'ng'iroq xonlarining homiylik natijasida Munis va Ogahiy tomonidan shakllantirilgan tarix va tarjimashunoslik maktabi XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Xiva xonligida vujudga kelgan. Ma'rifatparvarlik yo'nalishi namoyondalarining yetishib chiqishiga turtki bo'ldi. Ammo shunday bo'lishiga qaramay, kitobxonlar hali-hanuzgacha bu asarlarni to'liq holda o'qish imkoniga ega bo'la olganlari yo'q. Hatto Xorazm tarixnavislik maktabining vakillaridan biri Muhammad Yusuf Bayoniy ham Ogahiyning bu asarlari bilan tanisha olmaganligini 1911-1913-yillarda yaratgan "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida aytib o'tadi: "Ammo Muhammad Aminxonni jannatmakon va Abdullaxoni firdavsoshion va Qutlimurodxoni mag'furning voqeotlorin Ogahiy alayhur rahma kitobot qaydig'a kirguzgan ekanlar. Ul nusxa topilmadi..."

Yana Muhammad Rahimxonni jannatmakoni soniyning yetti yillarining voqeotlorin Ogahiy alayhur rahma kitobot qaydig'a kirguzgan ekanlar. Ul ham topilmadi"[2].

Mustaqillik davrida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda Turkiston va Buxoro jadidlarining shakllanishida XX asr boshlaridagi Rossiya, Eron, Turkiya inqilobiyharakatlarning ta'siri bo'lganligi, shu bilan birga o'lkadagi ijtimoiy, siyosiy hayot, ayrim ma'rifatarvarlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati muhim ahamiyat kasb etganligi o'z isbotini topmoqda. Ayniqsa, D.Alimova, F.Qosimov, B.Qosimov, S. Ahmedov, Q. Rajabov, S.Xolboyev, xorij olimlari Dudanyon, T.Zarxon, I.Baildauf, Malik Holid va boshqalarning ishlarida bunday fikrlar ustunlik qiladi[3].

Jadidchilikning turli serqirra yo'nalishlari kabi Xiva jadidchiligining ham o'ziga xos xususiyatlari, o'zining shakllanish va rivojlanish bosqichlari bilan ajralib turadi.

Ma'rifatparvarlik jadidchilik harakatining asosini tashkil qiladi, ana shunday ma'rifatparvar hukmdor Feruz 1884-yilda Xivada maktab ochib, unda rus-o'qituvchisi xizmatidan foydalangan. Bundan tashqari, Rahmonqul qori kabi talantli ta'lim tarbiya ustalari saboq bergan Xivadagi maktabda 1887-yilda 11 ta o'quvchi ta'lim olgan. 1891 -yilda Komil Xorazmiy tashabbusi bilan Xivada ochilgan rus-tuzem maktabi to'g'risida "Turkiston viloyatining gazetisi" shunday xabar bergan: Xiva mamlakatida Rusiya tilini o'rganmoqning boshlanishini xohlab, Rusiya tilida ta'lim beradig'on maktabxonasi ochib, ul maktabda o'n bola uchun joy va harajat ta'min qilinibdur. Ushbu yil aprel oyida Turkiston viloyatidagi tamomi Rusiya madrasasi va maktabxonalarining noziri...Xivaga borib...mazkur maktabni ko'ribdur ... Xon (Feruz) andin Xivaga bir o'ris domlasi yubormoqni iltimos qilibdur. Shul sababdin Rusiya tili va ilmi hisobini o'rgatmoq uchun yil Toshkand shahrida "Учительская

семинария” ni juda yaxshi xatm qilg‘on qozoq musulmon Husayn Ibrohim o‘g‘lini maktabxonaga domlalikka tayinlabdur”[4]. 1892-yilda Komil Xorazmiy Toshkent tipolitografiyasi, teatri, gimnaziya va maktablari, kasalxonalari, gazetalari muharririyati ishi bilan tanishib qaytgach, Feruz bilan kelishib bu sohalarni rivojlantirish chora - tadbirlarini ishlab chiqdi va rus - tuzem maktabining ishi yanada yaxshilandi. Ushbu rus - tuzem maktablarining asosiy maqsadi mahalliy millat bolalariga rus tilini o‘rgatib, mahalliy tarjimonlar tayyorlashdan iborat edi. Chunki hali xonlikda rus tilida ish yuritish, kelgan maktublarni o‘qish va tarjima qilish, nomalar bitish sohasida qiyinchiliklar tug‘ilayotgan edi. Bu davrda 1885-yilda Petro - Aleksandrovska (hozirgi To‘rtko‘l) shahrida ochilgan rus - tuzem maktabini bir qancha xivalik yoshlar, jumladan, Asfandiyor to‘ra, Muhammad Aminaddin o‘g‘li va boshqalar tugatishgan edilar. Muhammad hoji Aminaddin o‘g‘li 1892-1897-yillarda Fransiyaning Tuluza shahridagi suv xo‘jaligi kollejida ta‘lim olgan zamonaviy ma‘lumotli birinchi o‘zbek irrigatori edi[5]. Mana shunday, rus - tuzem maktabida o‘qishi hamda bir necha bor otasi nomidan Moskva va Peterburgda borishi Asfandiyorxonning boshqa to‘ralarga nisbatan yangiliklarga ancha moyil bo‘lishiga turtki bo‘lgan. Hasan Madaminovning “Xiva xonligi tarixidan lavhalar” nomli qo‘lyozmasida ko‘rsatilishicha, u dunyo siyosatidan boxabar bo‘lish uchun bir qancha gazeta jurnallarni oldirib, ularni tarjimonlar yordamida o‘qib ham turgan”[6]. Bu esa mamlakat boshqaruvida islohotlar o‘tkazish va jadidlar faoliyatining kengayishiga ancha imkoniyat yaratgan. Peterburgdan 1898-yilda inqilobiy faoliyati sababli Kislyakov, Andreyev, Safronov kabi talabalarning Xiva xonligiga surgun qilinishi bu hududlarga ham Rossiyadagi o‘zgarishlar, turli xil oqimlarning qarashlari kirib kela boshlashiga sabab bo‘ldi. Safronov bilan bevosita yaqin tanishlik, keyinchalik Yosh Xivaliklar partiyasining asoschisi Polvonniyoz Hoji Yusupov qarashlarining shakllanishiga o‘ziga xos ta‘sir qilgan[7].

Turkiston o‘lkasining boshqa viloyatlaridagi kabi Xiva xonligida ham jadidchilik g‘oyalarining tarqalishi va yangi usul maktablarining ochilishida tatar millatiga mansub ziyolilarning xizmatlari katta bo‘ldi. 1905-yilda Nijniy Novgorodda bo‘lib o‘tgan musulmonlarning syezdidan keyin ular Galisdjan Borudiy rahnamoligida Turkiston, Buxoro va Xorazm bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yib, bu yerlarga o‘z tarbiyalanuvchilarini yubora boshladilar. Dastlab Borudiy xon va amaldorlar bolalarini o‘qitish uchun Bikkulin, Tavfiq va Yusuf Ahmedovlarni Xorazmga yuborgan[8]. Bu paytda Xiva xonligi hududida 8 ta jadid maktabi bo‘lgan.

Yangi usul maktablariga dars berish uchun kelgan jadid ziyolilari - bu harakat (jadidchilik)ning otasi hisoblangan Ismoilbek Gaspirinskiy g‘oyalarini Xorazm xalqi orasiga yoyish uchun fidoyilik ko‘rsatib ishladilar. Tinch yo‘l

bilan, ma'rifat va madaniyat orqali tuzumni o'zgartirish, mustamlakachilik sirtmog'idan qutulib, ozodlikka erishishni targ'ib qilgan bu ziyolilarning yana bir xizmati ular Rossiyaning turli shaharlari va boshqa joylar (Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, arab mamlakatlarida chiqayotgan "Vaqt", "Ittifoq", "Tarjimon", "Taraqqiy", "Yulduz" gazetalari, "Din va maishat", "Sho'ro" jurnallari, Turkiyada Istanbulda turk tilida nashr qilingan "Vahdat", Kalkuttada chiqayotgan "Habl - ul matin"[9]gazetasi va ko'pgina ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni xonlik hududida tarqatib yerli aholining, xususan ziyolilar siyosiy ongining uyg'onishiga, dunyoda bo'layotgan voqealardan boxabar bo'lishlariga imkon yaratdilar.

Xiva jadidlarini o'ng va so'l oqimlarga bo'lish mumkin emas edi. Mavjud adabiyot va tadqiqotlarda Xiva jadidlari o'ng oqimiga vazir Islomxo'ja boshliq savdo- sanoat korxonalariga egalari va katta boylar turganligi qayd qilinib, so'l oqim namoyondalariga Boboovun Salimov, Husaynbek Matmurodov, Polvonniyoz Hoji Yusupovlarni kiritadilar. Lekin ular ham amaldor, katta yer egasi, savdogar va zavodchi boylardan edilar. Jo'ra Toshqulov Xiva jadidlarini shu bilan birga, maqsad va kurash usullariga qarab ham o'ng va so'l oqimga ajratadi. So'l qanot vakillari mavjud siyosiy-huquqiy tartibotlar bilan murosa qilishni istamay, hatto fitna usulidan foydalanishga intilishlari borligini qayd qilib, 1917-yil aprelda chaqirilgan Majlisning tarqatilishi va bir qancha Yosh xivaliklarning qamoqqa olinishi uchun bahona bo'lgan voqeani keltiradilar. Bunda asosiy aybdor sifatida Husaynbek Matmurodov va yana bir necha Yosh xivaliklar qamalgan edilar.

Husaynbek boshliq bir necha birodarlarimizni hibsga qildilar"[10], deb yozadi Polvonniyoz Hoji Yusupov. Demak, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Xiva jadidlarini o'ng va so'lga ajratmaslik maqsadga muvofiqdir. Ularning barchasi ham islohot, yangilik, taraqqiyot tarafdorlari edilar.

Islohotlar tarafdori bo'lgan vazir Islomxo'ja yordami bilan taxtni egallagan Asfandiyorxon vazirning rus amaldorlari bilan yaxshi aloqada ekanligini ham hisobga olib, o'z hukmronligining dastlabki vaqtlarida islohot to'g'risida farmonlar chiqarib, mamlakat boshqaruvida Islomxo'jaga keng yo'l ochib berdi. Islomxo'ja 11 moddadan iborat hokimlarga ko'rsatmalar[11] berish bilan birga 10 moddadan iborat islohotlar dasturini ham ishlab chiqdi:

1. Xonlikdagi mansabdor va xizmatchilarga lavozimiga qarab oylik maosh belgilash;
2. Dehqonlardan soliq olishni tartibga keltirish va soliq oluvchilarni 3 tabaqaga ajratish;
3. Zakot, boj, xiroj kabilarni tartibga solish;
4. Aholidan savdo - sotiq uchun olinadigan soliqlarni tartibga solish;

5. Yerlarni sug'orish ishlarini tartibga solish;
6. Yo'llar, temir ko'priklar qurish va pochta telegraf xizmatini tashkil qilish;
7. Shaharlarda kasalxonalar qurish, qishloqlarda feldsherlik xizmatini ochish, tibbiy xizmatchilarni taklif etish;
8. Barcha vaqf yerlarini markazlashtirish va daromadlarini m aorif ishlarigasarflash;
9. Barcha maktablarda yangicha o'qitish usuliga o'tish, maktablar dasturiga rus tili, geografiya, tarix fanlarini majburiy qilib kiritish;
10. Xon xazinasini hisobini yuritish, kirim - chiqim kitoblarini olib borish[12].

Bu dastur tezda hayotga tadbiiq etila boshlandi. Islomxo'janing taklifi bilan xonlik hududida Kabir Abdurashidov, David Bakirov, Muxtor Bakirov kabi o'qituvchilar[13], pochta-telegraf va temir ko'priklar quruvchi injenerlar, 1913-yildan A.F.Anisimov rahbarligidagi vrachlar ish olib bordilar. Bu jarayon jadidchilik harakatining keng rivojiga ta'sir qilib, Xo'jayli, Xonqa, Gurlan kabi qal'a (shahar)larda ham yangi usul maktablari ochila boshlandi. Lekin Yosh xivaliklar partiyasi va rahbarlaridan biri Polvonniyoz Hoji Yusupovning yozishicha, Asfandiyorxon ustalik bilan otasi davrida xizmat qilgan, mamlakatda katta ta'sirga ega bo'lgan amaldorlarni Islomxo'jaga qarshi qo'ydi. Natijada Islomxo'jaga qarshi shaxsiy g'arazi bo'lgan, uning olib kelayotgan yangiliklarini ko'rolmayotgan amaldorlar bilan Islomxo'ja o'rtasida kurash boshlanadi. Dastlab Asfandiyorxon Islomxo'jaga qarshi Xusaynbek devonbegi boshliq amaldorlardan ariza yozdirib olib, keyinchalik buni Islomxo'jaga ko'rsatdi. O'z mavqeyidan foydalangan vaziri buzruk Islomxo'ja Xusaynbek Devonbegi, Sohibnazar mehtar, Sheyxnazarboy yasovulboshi, Omongeldi Sardorboy, Otajon mahram, Muhammad Latif Mahsum, Muhammmad Pano maxsum, Bobo Devon, Inoyat Devon, Qobul Mahram, Xo'ja Jumaniyoz, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Bobojon Yoqubovlarni zindonga tashlab, ularning mol-mulkini musodara qildiradi. Ular hibsdan 13 oy ushlanib turilgan. Shuningdek, dastlab Islomxo'jaga qarshi bormagan Asfandiyorxon uning faoliyatiga zid ishlarni qila boshladi. Ular orasidagi nizo yangi qurilishlarga mablag' yetmay qolganda - Asfandiyorxon Yevropacha uslubda qabulxona qurishni buyurgandan boshlandi. Uning buyrug'ini Islomxo'ja so'zsiz qabul qilib, imoratni Nurillaboyda qisqa vaqtda qurib bitkazgan. Lekin bu nizo 1913-yilda Islomxo'janing o'ldirilishiga olib keldi va islohotlar to'xtab qoldi. Bu voqealar Xiva jadidlari va endi shakllanayotgan Yosh xivaliklar faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Jadidchilik harakatidan siyosiy partiya darajasiga ko'tarilgan Yosh xivaliklar partiyasi qachon va qanday tashkil topganligi

haqida bugungi kungacha turlicha fikrlar mavjud. G. Nepesov, N.Qalandarov, K. Muhammadberdiyev, J.Toshqulov tadqiqotlarida hech qanday manba ko'rsatilmadan Yosh xivaliklar harakati XX asr boshlari (1905-yil) da birinchi rus burjua inqilobi ta'sirida "Xiva jadidizm bazasida opozitsion ijtimoiy oqim sifatida shakllandi", deb ta'kidlashadi va 1910-1911-yillarda Turkiya, Eron inqiloblari sabab partiya o'z ishini ancha faollashtirdi.hamda 1917-yilga qadar yashirin faoliyat olib bordi,- deb yozishadi. Yosh xivaliklar partiyasi tashkilotchi rahbarlaridan biri Polvonniyoz HojiYusupovning "Yapon mahorabasidan so'ng gazetalar har turli taraqqiylarga doir maqolalar yoza boshladilar. Man alardin har turli gazeta va jurnallar olib o'qiy boshladim. Ondin so'ng har kunda ijtixodim (kuchim, jahdim - P.N) ziyoda bo'lib, hurriyat uchun talasha boshladim. Ba'zi hurriyatparvar birodarlar ham qo'shilib, hurriyatga doir muzokaralar qila boshladik" va ...vaqti - vaqti pinhoni ba'zi hurriyatchi birodarlar birlan so'zlashib ko'nglimizni holi qilur edik", -deb yozgan so'zlari yuqoridagi tadqiqotlar uchun asos bo'lgandir. Yosh xivaliklar kun tartibiga zulmga qarshi kurash va xonlik tuzumini tenglik va ozodlikka asoslangan boshqaruv tuzumi bilan almashtirish vazifasi qo'yildi. Bu vazifa bilan 1914-yil avgust oyida Xiva shahrida inqilobiy tashkilot tuzilib P.H.Yusupov rais va haqiqiy a'zolikka: Jumaniyoz Hoji Boboniyozov, Otajon Safayev, Bobojon Yoqubov, Hakimboy Jonmuhammedov, Muhammadyor Xo'ja Abdullayev, Xudoybergan Devonov, Otajon Xo'janiyozov, Rahmonbergan Yoqubov, Muhiddin Umarov, Husaynbek Muhamadmurod (Matmurod) devonbegi o'g'li, Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov, Nazir Sholikorov, Sulton Qori Jumaniyozovlar saylandilar. Yosh xivaliklarning asosiy vazifasi ozodlik haqida, mehnatkash dehqonning ozod, yangi hayoti haqida tanishlar, do'stlar, shuningdek, ishonchli odamlar orasida tashviqot olib borish hisoblangan[14]. Rossiyaning Birinchi jahon urushiga kirishi bilan unga qaram bo'lgan Xiva xonligidagi aholi ahvoli yanada og'irlashdi, soliqlar miqdori ko'paytirildi, xalqning norozilik harakati kuchaya bordi. Bu davrda endigina uyushib kelayotgan ilg'or fikrli kishilar urush va xon olib borayotgan siyosatni qoralab, unga qarshi mehnatkashlar orasida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib bordilar. Bu ishlami amalga oshirishda Bobooxun Salimov rahnamolik qildi. U xalq orasida va saroyda Asfandiyorxon olib borayotgan siyosatning xatoligini oshkora aytib, xonning kamchiliklariniko'rsatib bera oldi. Bu Bobooxun Salimovning xalq orasida mavqeininng oshishiga, uni qo'llovchi kishilaming ko'payishiga olib keldi. Uning tarafdorlari ko'p bo'lgani uchun ham xon uni maxfiy o'ldirtirib yuborishdan yoki jazolashdan qo'rqardi. Mamlakatda kuchayib ketgan haqsizlik va jabr-zulmdan azob chekayotgan xalq turli beklıklardan xon va uning amaldorlaridanshikoyat

qilib, Bobooxun Salimov oldiga o'z vakillarini yuborib, undan maslahat so'rashardi.

Shunday jarayonda mavjud tuzumga qarshi xonlikdagi barcha millat vakillarining birgalikda kurashi zarurligini his etgan Bobooxun Salimov turli bekliklardagi norozilik harakati rahbarlarini birgalikda kurashga chaqirdi. Chunki 1915-yilda Qurbon Mamed sardor (Junaidxon) qo'shinlari xon sarbozlarini mag'lubiyatga uchratib, general Geppner vositachiligida bitim tuzgan edi. Lekin maqsadi Rossiya hukmronligidan mustaqil hokimiyat tuzish bo'lgan Junaidxon kurashni davom ettirayotgan edi. Albatta bunday vaziyatda kuchlarni birlashtirib, harakat qilish har ikki tomon uchun ham foydali edi. Ya'ni, Bobooxun Salimov rahnamoligidagi Yosh xivaliklar ham kuch bilan mamlakatda demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishni maqsari qilib qo'ygan edilar. 1916-yil yanvar- fevralida xonlikda bo'lib o'tgan qo'zg'olonda ayniqsa, Bobooxun Salimovning turkman, qozoq, o'zbek aholisining birgalikda xonga qarshi chiqishini uyushtirish, hibsga olingan qo'zg'olon rahbarlarini ozod qilishda Junaidxondan foydalanish va ularning huquqlarini himoya qilishda xizmati katta bo'ldi. Lekin general Galkin boshliqjazo otryadi kelgach, hibsdan ozod qilingan xo'jaylilik Avazbiy, Muhammadbiy, Isomiddin Eshon, gurlanlik Xudoyberganbek, Qutlimurod inoq, Otash mirob kabi qo'zg'olon rahbarlari osib o'ldirilgan[15]. 1917-yil fevral inqilobi bo'lib, podsho Nikolay II taxtdan ag'darilgan vaqtda Asfandiyorxon Yaltada dam olayotgan edi. Bu xabami eshitib, u Toshkentga, undan Chorjo'y orqali general Mirbadalov hamrohligida Xivaga qaytib keldi. Uni kutib olishga chiqqanlar orasida bo'lgan Polvonniyoz Hoji Yusupov "Vaqt" gazetasidan podshoning taxtdan ag'darilganligi haqidagi xabarini bilib oladi va o'z hamrohlarini ham bu xabar bilan tanishtirib, mamlakatga buning qanday ta'siri bo'lishini muhokama qiladilar. Yosh xivaliklarning xon yo'qligida hokimiyatni qo'lga ololmaganligi bir necha sabablarga bevosita bog'liqligini ham aytib o'tishimiz lozim. Dasturi, xalq orasida tayanchi, aniq bir maqsadlari bo'lmaganligi hokimiyatni qulay vaziyatda qo'lga olmaganliklarining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Ayni shu paytda Xivada bo'lgan rus askarlari esa ularga inqilobiy kurash yo'l-yo'riqlarini o'rgatadilar: "Xivada turg'on askarlar ichinda Qo'qonda turuvchino'g'ay birodar Shokir Tenisov ham Abdushukur Latipovlar ham bizlarning maslahatimizga qo'shilib hurriyatga doir har xil yo'l-yo'riqlar ko'rsata boshladilar". Aynan 1917-yil voqealari munosabati bilan Polvonniyoz Hoji Yusupov "Xotiralar" kitobida birinchi marta Yosh xivaliklar atamasini ishlatadi: "Shul vaqtda (1917-yil aprel boshlari) hurriyatchi Yosh xivaliklar hurriyat haqida maslahat qila boshladik". 1917-yil voqealarida Polvonniyoz Hoji Yusupov, Nazir Sholikorov, Husaynbek Matmurodov, Bobooxun

Salimov va boshqalar faol ishtirok etganlar. 1917-yil 5-aprelda namoyish qatnashchilari Nurullaboy saroyiga kelib, qoʻrqib ketgan Asfandiyorxondan idorai mashruta (majlis) tuzishga rozilik oladilar, ammo ularning qoʻlida talabnoma yoki manifest yoʻq edi. Asfandiyorxon va uchta qozi - domulla Ibrohim oxun, qozi - ul-quzot domulla Xudoybergan oxunlar imzolagan manifest ham Nurullaboy saroyida shoshilinch yozilgan. Yosh Xivaliklar hamisha ozodlik va tarqqiyot tarafdori boʻlgan Bobooxun qozikalonni manifest asosida birinchilardan boʻlib taklif qildilar: “...avvaldin mashhur hurriyatparvar ulamo sinfidan boʻlgan Bobooxun qozi Salimoxun eshon oʻgʻlini keltirmakka birodar Jumanioz Hoji Bobonioz oʻgʻlini yubordik. U borib qozi ulamolaming tarafidan uni vakil qilib olib keldi” [16]. “Joylarga yuborilgan kishilar xalq vakillarini saylab olib kelgach, Bobooxun Salimov majlis raisligiga saylandi”. 1918-yil iyul oyida Yosh xivaliklar oʻz dasturlarini ishlab chiqdilar. Bunda ular oʻzlarini Xiva inqilobiy partiyasi deb ataganlar. Polvonioz Hoji Yusupov yozishicha, ushbu dastur Shokir Siddiqov raisligi va David Bakirov kotibligida oʻtkazilgan majlisda qabul qilingan. Yosh xivaliklar inqilobiy qoʻmitasi kotibi Otajon mahram Sapayev dastuming Xivani Turkiston respublikasining bir qismi qilishdan iborat boʻlgan 2-moddasiga qarshi chiqib: “...ushbu hurriyatdan tamomi mahkum xalqlar istifoda qilib, oʻz istiqlolini olgan vaqtlarida, biz Yosh xivaliklar oʻzimizda boʻlgan mustaqilligimizni yoʻq qilsak vatanga, millatga xiyonat qilgan boʻlurmiz”, -deydi. Lekin koʻpchilik bu moddani olib tashlasak shoʻrolar bizga yordam bermay qoʻyadi degan andisha bilan qolishiga ovoz berishgan. Ushbu dastuming aniqlashtirilgan va RSFSR ga qoʻshilish toʻgʻrisidagi moddasi olib tashlanib, 12 moddadan iborat variant “Xiva inqilobchilar partiyasining yaqin vazifalari” nomi bilan 1920-yil 8-yanvarda “Известия” gazetasida bosib chiqarilgan. 1918-yil avgust boshlarida Yosh xivaliklar inqilobiy qoʻmitasining aʼzolarini joylarda inqilobiy uyushmalar tuzish uchun joʻnatiladi. Buni Toshkentdagi Yosh xivaliklar inqilobiy qoʻmitasi aʼzosi Mulla Jumanioz Sultonmurodov nomiga 1918-yil 4-avgustda berilgan 12-sonli mandat nusxasi ham tasdiqlaydi. Bu hujjat Yosh xivaliklar inqilobiy qoʻmitasining shtampi va muhri nusxasining yaxshi saqlanganligi bilan ham qimmatlidir. Yumaloq shakldagi muhrga aylana tarzda “Младохивински Револуционный Комитетъ” deb doira ichiga arab harfida “Yosh xivaliklar inqilobiy qoʻmitasi” va kirillchada “ТАШКЕНТЬ” soʻzlari yozilgan. Ushbu maqoladan qisqacha xulosa qiladigan boʻlsak, Yosh xivaliklar partiyasi harakati 1904-1905-yillarda hamfikrlar, 1910-yil boshlarida manfaatlar guruhi sifatida shakllangan boʻlsa, 1917-yilda amaldorlar, maʼrifatli boylar, milliy burjuaziya va ziyolilaming Xiva xoniga muholifatdagi siyosiy kuch, 1918-yil 5-iyunda esa oʻz dasturi, tuzilishi, muhriga ega boʻlgan

rasmiy tashkilot sifatida to'la shakllanganligini ko'rib o'tdik. Bular dunyoqarashining shakllanishi va tadrijiy rivojlanishida xonlikdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum, Turkiya, Eron, Rossiya va Turkistondagi siyosiy o'zgarishlar obyektiv sharoit sifatida katta ta'sir qilgan hamda rus inqilobchilari, sho'ro soldatlari va Turkistondagi mahalliy inqilobchilar ta'siri subyektiv omil sifatida katta rol o'ynagan.

Bibliografiya

1. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. –Toshkent: O'zbekiston, 1996, 430-b.
2. Bayoniy M.Y. Shajarayi Xorazmshohiy. –Toshkent: Meros, 1992, 103-b.
3. Polvonov N.T. Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi. Dissertatsiya. – Toshkent, 2005.
4. Davlatyor Rahim. Shohnazar Matrasul. Ko'rsatilgan asar. –B.101-102.
5. Komiljon Nurjon, Ro'zimboy Hasan. Jayhun mirobi. –Toshkent: Mehnat, 1997.
6. Yusupov P.H. Yosh xivaliklar tarixi. –Urganch: Xorazm, 2000. 77-b.
7. O'zR MDA, I - 125- fond, 1-ro'yxat, 69-ish, 60-62-varaqlar.
8. O'zR MDA, I - 125- fond, 1-ro'yxat, 609-ish, 2-varaq.
9. O'zR MDA, 1-71- fond, 1-ro'yxat, 128-ish, 6-varaq.
10. O'zR MDA, I -125- fond, 1-ro'yxat, 578 -ish.
11. Yusupov P.H. Yosh xivaliklar tarixi. –Urganch: Xorazm, 2000. 162 b.
12. O'zR MDA. I - 125- fond, 1-ro'yxat, 609-ish, 64-72-varaqlar.
13. O'zR MDA. I - 125- fond, 11-ro'yxat, 609-ish, 3 -5-varaqlar.
14. O'zR M DA. I - 125- fond, 1-ro'yxat, 609-ish, 86 - 90-varaqlar.
15. O'zR MDA. 125-fond, 1-ro'yxat, 609-ish, 7-8-varaqlar.
16. O'zR MDA. 125-fond, 1-ro'yxat, 609-ish, 49-varaq.